

## AVESTO HAQIDA MULOHAZALAR

*Musurmonova Mohinur Ulug’bek qizi*

*Termiz davlat uneversiteti Tarix fakulteti 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada “Avesto” va uning yaratilish tarixi, Zardushdiylik dinining vujudga kelishi , Zardushtiylikdini ta’limoti va marosimlari , shu jumladan “Avesto” ning qonun-qoidalari va olimlarning izlanishi natijasida “Avesto” matnlarining tarjimasi haqida so’z yuritiladi.

**Аннотация:** В статье говорится об “Авесте” и истории ее создания , возникновении зороастрийской религии , учении и обрядах зороастризма , в том числе о юридических нормах «Авесты» и переводе текстов «Авесты» в результате исследования ученых.

**Annotation:** The article talks about “Avesta” and the history of its creation , the emergence of Zoroastrian religion , teachings and rituals of Zoroastrianism , including the legal rules of “Avesta” and the translation of the texts of “Avesta” as a result of research by scientists.

**Kalit so’zlari:** Avesto , Ahuramazda, Zardusht, nask, Yasna, Videvdod, Yasht, Visparad, ossuariy, olov, tuproq, suv, yulduz, zand, donishmand.

**Ключевые слова:** Авесто , Ахурамазда , Зардушт, наск, Ясна, Видевдод, Яшт, Виспарад, костница, огонь, земля, вода, звезда, песок, мудрый человек.

**Keywords:** Avesta, Ahuramazda, Zardusht, nask, Yasna, Videvdod, Yasht, Visparad, fire, soil, star, zand, sage.

**Kirish.** Bundan uch ming yil ilgari qadimiylar Xorazmda vujudga kelgan “Avesto” zardushtiylik dinining muqaddas kitobi sifatida katta ijtimoiy , ma’naviy, axloqiy voqelikka aylangan. Abu Rayhon Beruniy “Avesto” va uning ayanchli taqdiri haqida gapirar ekan, “Podshoh Doro Ibn Doro xazinasida (Abistoning) 12 ming qora mol terisiga tillo bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar otashxonalarini vayron qilib , ularda xizmat etuvchilarni o’ldirgan vaqtida uni kuydirib yubordi. Shuning uchun o’sha vaqtdan beri abistonning beshdan uchi yoqolib ketdi . Abisto 30 “nask” edi, majusiylar qo’lida 12 nask chamasi qoldi. Biz Qur’on bo’laklarini haftiyak deganimizdek , nask Abisto bo’laklaridan har bir bo’lakning nomidir “ , degan edi. 1 Aleksandr Makedonskiyning O’rta Osiyoga yurishlari nafaqat “Avesto”ning boshiga solgan kulfat bilan , balki butun Sharq sivilizatsiyasini izidan chiqarib butun bir xalq madaniyati , ma’rifati , ijtimoiy hayot darajasi va kishilik jamiyatni taraqqiyotini barbob etgani bilan ham xalqimiz tarixida o’chmas iz qoldiradi.2 Zardushtiylik dini haqida va uning muqaddas kitobi “Avesto” haqida gap ketganda shuni nazarda tutish kerakki, fanda bu mavzuga doir bir qancha munozarali fikrlar mavjud, ya’ni Zardushtning

qachon va qayerda tug'ilganligi, qaysi millat vakili ekanligi, “Avesto”ning qanday holatda bizga yetib kelganligi qaysi tilda bitilganligi haqida fanda xilam –xil qarashlar bor. Dastlab yozilgan kitoblarda Zardusht va u yaratgan din “ majusiylik” , otashparastlik deb noto’g’ri talqin etib kelindi. “ Denkard “ va boshqa pahlaviy tildagi kitoblarda Zardusht ismi “ Madurta” shaklida zikr etilgan . “Otash”, “Quyosh” ,”Nur” , “Rushnolik” zardushtiylik dinining ramziy timsollari bo’lsa-da,lekin zardushtiylar hech qachon quyosh va olovga sig’ingan emas, faqatgina ularni muqaddas bilganlar, xolos. A.Ashirovning bergen ma’lumotiga ko’ra Zardusht eramizdan oldingi VII asrning oxiri va VI asrning birinchi yarmida faoliyat yuritgan.<sup>3</sup>

Asosiy qism. Muarrix Balxiyning “Forsnoma” kitobida “Avesto” 12 ming oshlangan mol terisiga bitilgan hikmatlar kitobi ekanligi qayd etiladi. Abu Ali Muhammad Bin Muhammad Bal’amiyning “ Tarixi Bal’amiy “ kitobida esa “Avesto” shoh Gushtasb farmoni bilan 12 ming mol terisiga podshoh mirzolari tomonidan tillo suvida yozilgani haqidagi fikrlar bayon etilgan. VII-VIII asrlarda O’rta Osiyoga arablarning bostirib kirishi juda ko’p madaniy – tarixiy yodgorliklarning yoqolishiga sabab bo’ldi. Jumladan , “Avesto”ning mavjud nusxalari ham ana shunday fojialardan , mislsiz jaholatdan chetda qolmadi.<sup>4</sup>

“Avesto” kitobi asos e’tibori bilan Zaratushtra va Ahura Mazdaning savol-javoblaridan iborat deyish mumkin. Bu kitob 21 qisdan ( naskdan ) iborat bo’lgan. Shundan zamonlar osha to’rt qismi hozirgacha yetib kelgan: “ Videvdod “

“ Yasna ”, “Visparad”, “Yasht” nasklari.<sup>5</sup> “Yasna” namoz uchun zarur duolarni, “Videvdod” Ahura Mazdaning dushmanlari bo’lgan devlarni mahv etishga mo’ljallangan duolar to’plamini, “ Visparad” namoz va zikr-u sano matnlarini, “Yasht” esa, Ahura Mazzadan boshlab u yaratgan turli ma’budlar sha’niga aytilgan, o’qilishi ko’p savobli hisoblangan alqov ( gimn ) lar to’plamini o’z ichiga olgan .<sup>6</sup>

“ Avesto “ g’oyalar haqida gapirar ekan , M. Umarzoda quyidagilarni bayon etadi: “ Zardushtiy falsafasiga ko’ra yaxshilik va yomonlik kishilarning botinida – ichki dunyosida yashaydi. Inson Axriman yoki Ahura Mazda tarafida bo’lishi mumkin, chunki ezgulik farishtasi uni hamisha yaxshilik qilishga , yovuz Axriman esa uni yomonlik qilishga undaydi va bu tortishuv kishi xayotining oxirgi damlarigacha davom etadi.... Agar biz “Avesto”ni ulug’ axloq kitobi desak , mubolog’a bo’lmaydi. Zardushtiylar yaxshi so’z, yaxshi amal va yaxshi andishani ilohiyashtirib , bu uch nom bilan atalgan muqaddas ruhlarga bag’ishlab har kuni uch martadan ibodat qilar edilar.

- 
1. A.R. Beruniy *Tanlangan asarlar. 1-jild* . T., “ Fan ”, 1968. 238-bet.
  2. Avesto tarixiy- adabiy yodgorlik. G’afur G’ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi. T., 2015. 5- bet.
  3. A. Ashirov . *O’zbek xalqi turmush tarzida zardushtiylik izlari* . ( *O’zbekiston tarixi jurnali* . 2001 yil 4- bet).
  4. Avesto tarixiy- adabiy yodgorlik. G’afur G’ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi . T..., 2015. 5- bet.

Mozdaparastlik dinida yolg’on gapistish , birovni aldash kechirib bo’lmas gunoh hisoblanadi. Zardusht aqidasiga ko’ra inson zulmat ichida qolib sargardon bo’lmasligi uchun rostlik va haqiqat chirog’ini qalbida yoqishi kerak” .7 Shu o’rinda aytish joizki, Amudaryo etaklarida , qadimgi Xorazm yerlarida, Surxon, Qashqadaryo va Zarafshon vohalarida zardushtiylik kohinlari yovuzlik va ezgulik o’rtasidagi mangu kurash haqidagi muqaddas qasidani kuylashgan . Ular kishilarni tinchlikka,adolat va ezgulikka chorlaganlar. Odamlar oilaga , uyga, suv va yerga nisbatan hurmat bilan qarshgan , farzandlariga insonning jamiyatdagi yuksak o’rni haqidagi tasavvurni singdirishgan.8 Zardushtiylar olov, tuproq, suv, va yulduzlarga sig’ingan, ularni muqaddas hisoblashgan. “Zardushtiylik” so’zi ham Zardusht ismidan kelib chiqqan . u miloddan avvalgi 1- mingyillikning birinchi yarmida yashab o’tgan tarixiy shaxs. 9 Yunonlar uni Zoroastr va Zoroastra, u asos solgan dinni esa “ Zoroastrizm” nomi bilan yuritishgan . Zardusht Spitama qavmidan bo’lib , otasini – Purushasp, onasini

Dug’dava deyishgan. U oilali bo’lib , ikkita qiz farzandi bor . Zardushtiylik paydo bo’lishi haqida shunday bir afsona bor: “ Bir kuni erta tongda Zardusht suv olish uchun daryo bo’yiga boribdi. Zilol suvda u Ahuramazda elchilaridan birining siymosini ko’rib qolibdi , siymo nur bilan qaysi tomonga borishga yo’l ko’rsatibdi. Zardusht sehrli nur izidan ergashibdi, ko’p o’tmay oliv iloh Ahuramzda qarshisiga borib qolibdi. Ahuramazda xudosi uning ezgu amallari haqidagi bilimlarni tarqatish uchun Zardushtni tanlaganini ma’lum qilibdi. Shu tarzda Zardusht 30 yoshida yangi diniy ta’limot payg’ambariga aylanibdi. 10 Payg’ambar so’zining ma’nosи “ ezgu amallar haqida habar beruvchi” deganidir. Zardushtiylik tarqala boshlagan paytlarda diniy marosimlar ochiq osmon ostida , gulxan yonida yoki uydagi o’choq olovi atrofida o’tkazilgan. “ Zardushtylarning marosimlari ibodatxonalarda jamoa bo’lib maxsus liboslarda yakka va jo’r ovoz holda kuylash , dialog va monolog shaklida qiroat qilish , tartibli harakatlanish va raqsga tushish vositasida olib borilgan. Bu marosimlarda teatr tomoshalari singari ijro elemetlariga ham doimo amal qilingan”11,- deydi professor M.Qodirov. Zardushtiylikning ehtiromga sazovor xudolari Ahuramazda , Mitra va Anaxitadir . Ahuramazda zardushtylarning ulug’ va donishmand oliv xudosi hisoblanadi. Mitra – Quyosh va yorug’lik xudosidir. O’tli chaqmoqlar yordamida yovuzlik va o’lim xudosi bo’lmish Axriman bilan jang qiladi . Anaxita zardushtiylikda hosildorlik va suv ilohasi hisoblangan. Zardushtiylar e’tiqodiga ko’ra, yolg’on so’zlamaslik, aldamaslik, vadaga vafo qilish , faqat ezgu ishlarni amalga oshirish lozim edi.12 Zardushtiylik ta’limotida o’lim yovuzlik ifodasi hisoblangan

5. Avesto Yasht kitobi. M. Isoqov tarjimasи “Sharq” nashriyoti . Toshkent . 2001yil . 4-bet.

6. Avesto Yasht kitobi. M. Isoqov tarjimasи “ Sharq ” nashriyoti . Toshkent . 2001 yil . 7- bet.

7. M. Umarzoda “Avesto “ sirlari . “ Juhon adabiyoti “ jurnali . 1997. 4-son. 199-200 betlar.

8. “ Tarix qadimgi dunyo “ A.S.Sagdullayev, V.A. Kostetskiy 6-sinf darslik .T..., 2017 .180-bet

9. “ Tarix qadimgi dunyo “ A.S.Sagdullayev , V.A. Kostetskiy 6-sinf darslik . T...., 2017, 80-bet.

Shu bois vafot etgan odamlarning dafn qilishning alohida marosimi yuzaga kelgan. O’lgan odamni yerga dafn qilish, yondirish , suvga oqizish ham mumkin emas edi.

Shu sababli yirtqich qushlar va hayvonlar yeb ketishi uchun jasadni toshli va qumli tepaliklarda qoldirishgan . yomg’irda yuvilgan va oftobda poklangan suyaklarni maxsus sopol tobutchalar – Osssuariylar ( suyakdonlar) da dafn etishgan.<sup>13</sup>

“Avesto” qonun qoidalariga ko’ra zardushtiyalar bosqinchilik, talon-taroj va turarjoylarni vayron qilish kabi harakatlarni og’ir jinoyat deb hisoblagan. Qurolni qo’lga olib insonga do’q qilish , birovni kaltaklab, unga jarohat yetkazish qattiq jazoga loyiq ko’rilgan. “ Avesto” oila va bolalar huquqlarini qat’iy muhofaza qiladi. Voyaga yetmagan bolalarni ota- onalaridan olib ketish, vasiysiz qoldirish qoralangan. Yosh bolalarga bilim berib, birorta hunarga o’rgatish qadrlangan, negaki “ O’qish – ko’zning nuri “ deb uqtirilgan.<sup>14</sup>

“Avesto “ birinchi bo’lib XVIII asrda fransuz olimi Anketil Dyuperron tomonidan tarjima qilingan. Uning qo’lidagi “Avesto “ qo’lyozmalari XIII asrga oid bo’lgan . K.Geldner, X.Bartolome, V.V.Struve, X.Xumbax, Ye.E.Bertels, V.I.Abayev , S.N.Sokolov, V.A.Livshis, I.M.Oranskiy, I.S.Braginskiy, I.M.Steblin – Kamenskiy va boshqa bir qancha olimlar “Avesto “ tilini o’rganish bilan shug’ullanganlar. Shu tariqa “Avesto”ning o’zbek tilidagi tarjimalari paydo bo’ldi (A. Mahkam, M. Is’hoqov). “Avesto” matnlariga sharh “Zand” deb yuritilgan.<sup>15</sup> “Avesto” va zardushtiylik ta’limoti dunyoning qator mamlakatlaridaturli mutaxasislar tomonidan tadqiq etildi va zardushtiylikning kishilik jamiyatini takomillashtirish , inson – jamiyat – jarayon yaxlitligi va izchil taraqqiyoti , inson va tabiat o’rtasidagi yuksak axloqiy munosabatlarni o’zida mujassam etgan islohchilik jarayonlari ilmiy – nazariy tomonidan ancha chuqur o’rganildi va e’tirof etildi.<sup>16</sup> O’zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin “Avesto” ning 2700 yillik yubileyi keng miqyosda nishonlandi.

### Xulosa

Har bir dinning muqaddas kitobi bo’ladi, albatta. Masalan , xristianlik dining muqaddas kitobi “Injil”, islom dinida esa “Qur’oni Karim” hisoblanadi. Zardushtylarning muqaddas kitobi bu – “Avesto” dir. O’zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A. Karimov : “ Avesto” ning tub ma’no – mohiyatini belgilab beradigan “ Ezgu fikr, ezgu so’z , ezgu amal “ degan tamoyilni oladigan bo’lsak ,

10. “ Tarix qadimgi dunyo “ A.S.Sagdullayev , V.A. Kostetskiy. 6- sinf darslik. T...., 2017, 80-bet
11. M.Qodirov “ Avesto “ va tomosha san’atlari ” . “Avesto va uning insoniyat taraqqiyotidagi o’rnii” mavzuyidagi xalqaro ilmiy konfrensiya materiallari. T..., “Fan” . 2001 yil 44-bet.
12. “ Tarix qadimgi dunyo ” A.S.Sagdullayev, V.A.Kostetskiy. 6-sinf darslik, T...., 2017, 82-bet.
13. “ Qadimgi dunyo tarixi. A.S.Sagdullayev, V.A. Kostetskiy 6-sinf darslik. T..., 2022-yil 83-bet
14. “ Qadimgi dunyo tarixi “ A.S.Sagdullayev, V.A. Kostetskiy 6-sinf darslik ,T...,2022-yil 84-bet
15. “Tarix qadimgi dunyo “ A.S.Sagdullayev, V.A.Kostetskiy 6-sinf darslik, T..., 2017yil, 81-bet
16. Avesto tarixiy – adabiy yodgorlik . G’afur G’ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi. T..., 2015 yil.5-bet.

unda hozirgi zamon uchun ham behad ibratli bo’lgan saboqlar borligini ko’rishimiz mumkin “, - degan edi.

Mustaqillikdan keyin “Avesto “ yubeliyeni nishonlash arafasida , kitobni o’zbek tiliga tarjima qilish vazifasi o’rtaga tashlandi va bu vazifa A.Mahkam zimmasiga yuklatildi. Bundan tashqari Urganch shahrida “Avesto” kitobi yodgorligi o’rnatildi. “Avesto” kitobi turli tillarda tarjima qilingan , ammo olimlarning fikrlari xilma-xildir. Bir biriga zid keladigan qarashlar ham yo’q emas albatta. Bugungi kunda ilm fan rivojlanmoqda. O’ylaymizki mana shu qarama qarshi fikrlarni, aniqlik asosida yoritib bera oladigan olimlar topiladi, albatta. Buning uchun hozirgi yosh avloddan ko’proq kitob o’qish talab qilinadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- Beruniy “Tanlangan asarlar” 1-jild T..., “Fan” 1968 yil
- Avesto tarixiy adabiy yodgorlik G’afur G’ulom nomidagi nashriyot. T..., 2015-yil,
- A.Ashirov “o’zbek xalqi turmush tarzida zardushtiylik izlari” (O’zbekiston tarixi jurnali . 2001 yil. 4-bet)
- “Avesto yasht kitobi” M.Isoqov tarjimasi “sharq” nashriyoti Toshkent.2001-yil
- M.Umarzoda “avesto “ sirlari . “Jahon adabiyoti “ jurnali . 1197-yil 4-sон
- “Qadimgi dunyo tarixi” A.S.Sagdullayev, V.A.Kostetskiy 6-sinf darslik. Toshkent. 2017- 2022 yil nashr
- M.Qodirov “Avesto” va tomosha san’atlari” . “ Avesto va uning insoniyat taraqqiyotidagi o’rni “ mavzuyidagi xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. Toshkent. “ fan” 2001 yil.